

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YER UCHASTKALARINI IJARAGA BERISH TARTIBINI
SODDALASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, erga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-son **Farmoni** bilan boshlangan yer munosabatlari sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini yanada soddalashtirish maqsadida:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish bo'yicha ochiq elektron tanlov natijalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlash tartibi bekor qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **ilovaga** muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.
3. Qishloq xo'jaligi vazirligi bir oy muddatda qonunchilikka ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.
4. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rindbosarlari Sh.M. G'aniyev va J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 24-mart,
PF-91-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 24-martdagi
PF-91-son **Farmoniga**
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, erga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-son Farmonining 2-bandi **beshinchi xatboshisidan** "natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadigan" so'zlari chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon ho'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-son **qarorida**:

- a) 2-bandning **to'rtinchi xatboshisi** "oilalarga" so'zidan keyin "hamda 2022-yil 1-mart sanasidan keyin xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlariga" so'zlari bilan to'ldirilsin;
- b) 6-bandning **birinchi xatboshisi** "tizimiga" so'zidan keyin "va "E-auksion" elektron savdo platformasiga" so'zlari bilan to'ldirilsin;
- v) 2-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**"E-IJARA" axborot tizimiga va "E-auksion" elektron savdo platformasiga integratsiya qilish
orqali idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yiladigan vazirliklar va idoralar**

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va uning huzuridagi "Elektron hukumat loyihibalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi.